

## HARBIY XIZMATCHILARDA HARBIY-VATANPARVARLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK FENOMENI

*Ravshanov Lochinbek Urinovich,  
O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi  
Markaziy harbiy okrug huzuridagi "Ilmiy tadqiqot"  
ilmiy-amaliy va uslubiy markaz boshlig'i,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, podpolkovnik*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola harbiy xizmatchilarda harbiy-vatanparvarlikning ijtimoiy-psixologik fenomeniga bag'ishlangan bo'lib, u harbiy xizmatchilarning kasbiy, ilmiy, psixologik tayyorgarligi kabilarni tadqiq etishni nazarda tutadi. Maqola mazmunida harbiy xizmatchining axloqiy, ma'naviy, emotsional, ijtimoiy-psixologik komponentlari ham konseptual asosda tahlil etilgan. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlikning harbiy xizmatchilar faoliyatidagi roli, harbiy rol, harbiy unvon, psixologik imij va shaxs tushunchalari ham ushbu tadqiqot mazmunidan chetda qolmagan.*

**Kalit so'zlar:** *harbiy xizmatchi, harbiy qism, harbiy intizom, harbiy imij, imijeologiya, ijtimoiy-psixologik imij, harbiy rol, harbiy unvon, harbiy professional, harbiy psixolog, harbiy faoliyat, kasbiy fidoiylik.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена социально-психологическому феномену военно-патриотизма у военнослужащих и предполагает исследование таких аспектов, как профессиональная, научная, психологическая подготовка военнослужащих. В содержании статьи концептуально проанализированы также моральная, духовная, эмоциональная, социально-психологическая составляющие военнослужащего. Кроме того, роль военно-патриотического воспитания в деятельности военнослужащих, воинская роль, воинское звание, психологический имидж и понятия личности также не были исключены из контекста настоящего исследования.*

**Ключевые слова:** *военнослужащий, воинская часть, военная дисциплина, военный имидж, имиджеология, социально-психологический имидж, военная роль, воинское звание, военный профессионал, военный психолог, военная деятельность, профессиональная преданность.*

**Annotation:** *This article is devoted to the socio-psychological phenomenon of military patriotism among military personnel and involves the study of such aspects as professional, scientific, and psychological training of military personnel. The content of the article also conceptually analyzes the moral, spiritual, emotional, socio-psychological components of a serviceman. In addition, the role of military-patriotic education in the activities of military personnel, military role, military rank,*

*psychological image and concepts of personality were also not excluded from the context of this study.*

**Key words:** *serviceman, military unit, military discipline, military image, imageology, socio-psychological image, military role, military rank, military professional, military psychologist, military activity, professional dedication.*

Harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga nisbatan psixologik bilimlarni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Jumladan, harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan Konsepsiyalarni amalga oshiriladi. Unga ko'ra, har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanimizga xizmat qilishga sodiq harbiy xizmatchilarni tarbiyalash bo'yicha alohida vazifalar belgilangan.

Tadqiqotchi F.Shermatov tomonidan bo'lajak ofitserlarda kasbiy zo'riqlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda ularni keltirib chiqaruvchi omillarni tadqiq etishning uslubiy ta'minotini takomillashtirishdan iborat bo'lgan, "Bo'lajak ofitserlarda kasbiy zo'riqlar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillari" mavzusidagi dissertatsiyasida olib borilgan tadqiqotlari natijasida "xizmat faoliyatida ruhiy tushkunlikka tushgan harbiy xizmatchilarni depressiyadan chiqish uchun ijobiy-kasbiy faoliyatni ta'minlovchi psixologik omillarni rivojlantirish va jangovar ruhiy yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirib borishning psixologik barqarorligi asoslangan"[1,7]. Unga ko'ra, harbiy xizmatchilarda kasbiy zo'riqlar bilan bog'liq holatlarni oldini olish uchun ulardagi vatanparvarlik ruhini rivolantirish muhim hisoblanar ekan.

Harbiy xizmatchilar o'rtasida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi qiziqarli tadbirlarning keng ko'lam va yuksak saviyada tashkil etish an'anasini qayta tiklash. Shuningdek, harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlarini yaxlit holda o'rganilishiga erishish, mazkur jarayonni tashkil etishning samarali yo'llari, omillari va vositalarini yetarli darajada o'rganish muhim hisoblanadi. Demak, harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik qadriyatlariga ega bo'lishlarini ta'minlashda va bu jarayonni yaxlit tashkil etish, unda har bir samarali omildan maqsadli foydalanish, imkoniyatlarni ko'ra olish va ularning samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchi A.A.Saidov tomonidan olib borilgan "Qurolli Kuchlar tizimida rahbar xodimlarning boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini" mavzusidagi PhD dissertatsiya ishida harbiy rahbarning kasbiy tayyorgarligini belgilovchi psixologik omil sifatida "harbiy rahbar faoliyatining tahliliga ko'ra boshqaruv faoliyatini rivojlantiruvchi sifatlar, muvaffaqiyatli rahbar sifatleri, kasbiy sifatleri bandlari (boshqaruv kompetentligining ijtimoiy-psixologik

baholash mezonlari) va kognitiv, hissiy-irodaviy, motivatsiyali va kommunikativ komponentlari (boshqaruv kompetensiyasini shakllantiruvchi psixologik komponentlari) integratsiyalashtirish natijasida harbiy rahbar boshqaruv kompetensiyalarni baholash va rivojlantirishni ta'minlovchi tizimning tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan"[2,10]. Unga ko'ra, harbiy rahbarning samarali boshqaruvni ta'minlashida quyidagi kasbga xos sifatlarga aqliy intellekt (IQ), sobitqadamlilik, mardlik, dovyuraklik, chidamlilik, qa'tiylik, sezgirlik, jangovorlik, sergaklik, emotsional sezgirlik, jismoniy yetuklik, mehnatsevarlik, adolatlilik kabi psixologik sifatlari bilan bir qatorda vatanparvalik ruhiga ham bog'liq ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Harbiy xizmatchilardagi vatanparvarlikni ulardagi ichki motivatsion omil sifatida shakllanishi ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ularda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish va hissiy motivatsion munosabatlarni tarkib toptirishda quyidagi shart-sharoitlarga amal qilish zarur deb hisoblayman:

vatanparvarlikni shakllantirishda ijtimoiy hayot sharoitlari bilan bog'lab olib borish;

harbiy xizmatchilarni ijtimoiy yo'naltirish, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy faoliyatni tashkil etish;

ijtimoiy onglilik va ijtimoiy hayot vaziyatlaridan to'g'ri yo'l topib chiqish olish – ma'naviyatlilik, komillik belgisi ekanligini tushuntirish;

harbiy xizmatchilarda mas'uliyat, mustaqil fikrlash malakalarni shakllantirish; o'smirlik davri – o'tish xususiyatlarini to'g'ri tushunish, ulardagi yosh va individual xususiyatlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik.

Harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida harbiy jamoadagi munosabatlar katta ahamiyat kasb etadi. Harbiy jamoada sog'lom muhitning saqlanishi ko'p omillarga bog'liq. Masalan, komandir bilan bo'sinuvchilarning o'zaro yaxshi munosabati, katta avlod vakillariga hurmat, e'tibor, harbiy xizmatchilarning o'zaro munosabatlari to'g'ri shakllangani, harbiy jamoada o'rnatilgan to'g'ri tartib kabilar shular jumlasidandir.

Shaxsda vatanparvarlikning psixologik tuzilmasini tadqiq qilgan V.N.Myasishchevning fikricha, vatanparvarlik komponentlari shaxsning davlatga, xalqqa va o'z-o'ziga nisbatan quyidagi munosabatlarida namoyon bo'ladi[3,53]:

davlatga munosabat – davlat ramzlarini, davlatning tarixiy, madaniy an'analarini, davlat tilini bilish va ularga nisbatan munosabatda ko'rinadi;

xalqqa munosabat – xalqning mentaliteti, qadriyatlari, asosiy xususiyatlarini anglash, vatanparvarlik, millatchilik, egotsentrizm, shovinizm tushunchalarining mohiyatini bilish, xalqning tinchlik va harbiy safarbarlik holatiga munosabat, xalq manfaatida vatanparvarlikni ifoda etishga ehtiyojini his qilishda ifodalanadi;

shaxsning o'ziga vatanparvar sifatida munosabat – o'zining huquqlarini, burch hamda majburiyatlarini bilishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchi A.A.Djabbarovning harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri shakllanishining psixologik jihatlarini ochib berish va uslubiy ta'minotini takomillashtirishdan iborat bo'lgan "Harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri shakllanishining psixologik jihatleri" mavzusidagi PhD dissertatsiyasida harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligiga oid qator ilmiy asoslar keltirilgan. Jumladan, "xizmat lavozimiga yangi tayinlangan kichik komandirlarning xizmat faoliyatini boshlang'ich davrida topshiriqlarni ijro etilishida jangovar ko'rsatmalarni samarali va so'zsiz bajarilishiga to'siq bo'luvchi "hissiy beqarorlik", "tortinchoqlik", "tobelik", "o'ziga ishonmaslik" psixologik xususiyatlarning salbiy ta'sir etishini va aksincha "vatanparvarlik", "mustaqillik", "ijtimoiy yetuklik" kabi psixologik xususiyatlarning ijobiy ta'sir etishi aniqlangan" [4,8]. Bundan ko'rinib turibdiki, lavozimga yangi tayinlangan harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda "vatanparvarlik" psixologik xususiyati muhim hisoblanar ekan.

Tadqiqotchilar A.L.Juravlev va A.V.Yurevichlarning tadqiqotlarida vatanparvarlikning psixologik jihatini tavsiflashga harakat qilingan[5,88]. Mualliflarning ta'kidlashicha vatanparvarlik ko'p komponentli tushuncha va hodisa bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlaganlar:

Vatanga muhabbat tuyg'usi;

shaxsiy manfaatlaridan ko'pchilik, omma manfaatleri uchun voz kechishga tayyorlik;

munosib xulq-atvor;

o'z mamlakati, uning tarixi va xalqiga mansubligini his etish.

Tadqiqotchi J.Ramatovning ta'kidlashicha, o'z taqdiri va kelajagi uchun qayg'uruvchi har qanday jamiyat, har qanday mamlakat shaxslarga munosabat masalasida ularning hayotini ma'naviy boy, sarmazmun qilish, xalqiga, Vatanga sadoqatli, har tomonlama yetuk, barkamol inson bo'lib yetishishidan manfaatdordir[6,129]. Shuning uchun harbiy xizmatchilarning jismoniy, ma'naviy va intellektual qobiliyatlarini namoyon qila olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Harbiy xizmatchilarimizning siyosiy ongli, ma'naviy barkamol, faol, mas'uliyatli, ona Vatanga sadoqatli bo'lib shakllanishi jamiyat va davlat taqdiri uchun g'oyat muhimdir.

Qolaversa, "Zamonaviy harbiy xizmatchi imijining psixologik jihatleri" mavzusida psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan tadqiqot ishimga asosan "Harbiy xizmatchi imijining ijobiy psixologik sifatleri"ga mas'uliyatlilik, jamoaviy "Men", qat'iyatlilik, sabr-bardoshlilik, faollik, jasoratlik, progressiv tip, ijobiy emotsional tip, muvozanatlashgan tip kabi psixologik sifatlar qatoriga vatanparvarlikning kiritilishi[7,116] yuqorida e'tirof etilgan ilmiy-psixologik ta'riflarning isbotini belgilaydi.

Harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda harbiy-kasbiy faoliyatning psixologik xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratilib, bunda harbiy xizmatchining jangovar holatga psixologik tayyorgarligi, harbiy xizmat va harbiy vazifalarni bajaruvchi o'rtasidagi munosabatlar, harbiy jihozlarni o'rganish va unga moslashish, jangovar vazifalarni bajarish va o'zida fidoiylik sifatini oshirish kabi masalalarga e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, harbiy xizmatchi profiliga xos sifatlar axloqiy xarakterga ega bo'lish, xizmat motivatsiyasining ustunligi, qiziqish va ehtiyojlarning kasb doirasida keng ko'lamliligi, harbiy kasb faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qobiliyat va ijobiy odatlarni shakllanganligi, har qanday sharoitda harbiy xizmatchida turg'un-emotsional barqarorlikni rivojlanganligi, sabr-bardoshlilik, tartib-intizomlilik, dadillik, maxsus qobiliyatlarni yuqori darajada ekanligi, komandir va boshliqlarga shubhasiz itoat qilish kabi masalalarning metodologik asoslantirish muhim hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik ruhini shakllanishiga aloqador bo'lgan shaxs xususiyatlarini aniqlash maqsadida mahalliy muhitga moslashtirilgan R.Kettellning "Kattalar shaxsini aniqlash 16 PF (A shakli)" so'rovnomasining tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, standart me'yorlar bo'yicha har bir shkalada harbiy xizmatchilarning statistik ko'rsatkichlari standart me'yor bo'yicha umumiy o'rtachani tashkil etib, harbiy xizmatchida vatanparvarlik ruhini shakllanishi uchun kirishimlilik ( $M=5,98$ ), intellektuallik ( $M=5,28$ ), yetakchilikka intilish ( $M=5,45$ ), ijtimoiy dadillik ( $M=6,00$ ), ta'sirchanlik ( $M=7,13$ ), hayoliy timsollari boy ( $M=6,35$ ), yangilikka sezgir ( $M=6,95$ ), o'zini o'zi tartibga solish ( $M=6,15$ ) omillar orasida asosan hissiy barqarorlikdan ko'ra, kognitiv xulq-atvorning ustunligi bilan farqlandi. Omillar orasida shu narsa yaqqol sezildiki, harbiy xizmatchilarda intellektning kuchli ekanligi alohida ko'zga tashlandi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, harbiy xizmatchining harbiy-vatanparvarligini tavsiflovchi, shaxsning yetakchi omillari bilan bog'liq vatanparvarlik, regulyativ qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, analitik tafakkur, mas'uliyatlilik, faollik, qat'iyatlilik, ijtimoiy dadillik, sabr-bardoshlilik, jasoratlilik, progressiv tip, muvozanatlashgan tip, ijobiy emotsional tip kabi shaxsiy-kasbiy fazilatlarini orqali "Harbiy xizmatchi harbiy-vatanparvarligining ijobiy psixologik sifatleri" aniqlandi.

Tadqiqotimizda alohida omillar bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan bo'lsa-da, harbiy xizmatchi harbiy-vatanparvarligini to'laqonli aks ettirish uchun omillarning yaxlit va izchil muvofiqligini ta'minlovchi jihatlarini aks ettirishga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinadiki, harbiy xizmatchi harbiy-vatanparvarligini tavsiflovchi asosiy psixologik jabhalarni tizimlashtirishda ularning ichki muvofiqligi va munosabatlarini aks ettiruvchi xususiyatlarni aniqlash lozim bo'ladi. Psixologik tahlil natijalari aynan

harbiy xizmatchi shaxsi uchun xos bo'lgan yetakchi omillarning o'rnini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xalqimizning boy milliy, ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda olib borilishi lozim. Harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlarni jonlantirish va faollashtirishda “harbiy jamoa – harbiy psixolog – komandir” shu uchlikning hamkorlikdagi faoliyati muhim sanaladi.

***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Shermatov F.T., “Bo'lajak ofitserlarda kasbiy zo'riqishlar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillari” psixol.f.f.d.(PhD) diss. O'zMU. 2021 y. 7-b.
2. Saidov A.A., “Qurolli Kuchlar tizimida rahbar xodimlarning boshqaruv kompetentligini oshirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari” psixol.f.f.d.(PhD) diss. O'zMU. 2022 y. 10-b.
3. Мясищев В.Н., Социальная психология личности. - Л.: 1974. С. 53.
4. Djabbarov A.A., “Harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri shakllanishining psixologik jihatlari” psixol.f.f.d.(PhD) diss. O'zMU. 2023 y. 8-b.
5. Журавлев, А.Л., Юревич А.В., Патриотизм как объект изучения психологической науки / А.Л. Журавлев, А.В.Юревич. // Психологический журнал. - 2016. - Т. 37. - № 3. - С. 88-98.
6. Ramatov J., Yoshlarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirish - ta'lim-tarbiya sohasining asosiy vazifasi. “Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari // O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi. – Toshkent, 2019, 129-131-b.
7. Ravshanov L.U., “Zamonaviy harbiy xizmatchi imijining psixologik jihatlari” PhD doktorlik diss..., O'zMU: 2019 y., 116 – b.